

## “BOBURNOMA”DA BADIHAGO‘YLIK

**Hamidov Nurali Shodiyor o‘g‘li,**

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o‘qituvchisi

[nuralihamidov1921@gmail.com](mailto:nuralihamidov1921@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada muallif “Boburnoma” asari misolida Zahiriddin Muhammad Boburning badihago‘ylik mahorati haqida fikr yuritadi. Muallif adabiyotshunoslik sohasida badiha va uning ma’nodoshlari improvizatsiya va ekspromt haqida lug‘atlarda berilgan izohlarni o‘zaro solishtirib, ular orasidagi umumiylig va o‘ziga xoslik jihatlarini ochib berishga intiladi.*

*Maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan yaratilgan badihalar, ularning badiyyati (janri, qofiyalanishi, ularda qo’llanilgan badiiy san’atlar) va yaratilish sabablari ilmiy jihatdan yetarli dalillar orqali asoslashga harakat qilingan.*

**Kalit so‘zlar:** “Boburnoma”, Zahiriddin Muhammad Bobur, improvizatsiya, badiha, ekspromt, saj, tazod, muqayyad qofiya.

### ARTISTRY IN “BOBURNOMA”

### ABSTRACT

In this article, the author reflects on Zahiriddin Muhammad Babur's artistic skills on the example of “Boburnoma”. In the field of literary studies, the author compares the definitions of improvisation and impromptu in dictionaries, and tries to reveal the commonalities and peculiarities between them.

**Keywords:** “Boburnoma”, Zahiriddin Muhammad Babur, improvisation, badiha, impromptu, saj, tazad, muqayyad rhyme.

### KIRISH

Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zbek adabiyoti taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shtigan o‘lmas so‘z san’atkorlaridan, mumtoz adabiyotimizning gultojlaridan biri sanaladi. Bobur serqirra iste’dod sohibi sifatida nazmda ham, nasrda ham badiiy jihatdan pishiq, mazmun jihatdan teran va betakror ijod namunalarini yaratdi, shuningdek, aruz nazariyasi, qofiya ilmi, harb yurishi, fiqh (islom qonunshunosligi), iqtisodiyot masalalariga doir kitoblari bilan ilm-fan ravnaqiga ham munosib hissa qo‘shti.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mutaxassislarining fikricha, Boburning avlodlarga qoldirgan boy va bebafo ilmiy-adabiy merosida buyuk ajdodimizga jahoniy shuhrat keltirgan asari, shubhasiz, uning “Boburnoma” asaridir [1, 16].

Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining memuar asari “Boburnoma”da o‘rni bilan tasvirlanayotgan voqeа-hodisaning mazmunini to‘laqonli ochib berish, ta’riflanayotgan shaxsning qiyofasini, ichki kechinmalari, ruhiy holatlarini aks ettirish, shuningdek, ayrim voqealardan tegishli tarbiyaviy xulosalar chiqarish uchun lirik parchalar keltiradi. Asardagi lirik parchalarning muayyan qismi Shayx Sa’diyning «Guliston», «Bo‘ston» asarlaridan, Xoja Hofiz g‘azallari va ruboiylaridan olingan [1, 29] bo‘lsa, qolganlari Boburning o‘z ijodiga mansub. Bobur qalamga olayotgan biror bir voqeа-hodisa, shaxs yoki narsa haqida kitobxonda muayyan tasavvur uyg‘otish uchun aksariyat hollarda mumtoz she’riyatning yetakchi janri sanalgan g‘azalning ma’lum bir baytini, asosan, matla’sini keltiradi. Muallif asarda, shuningdek, ruboiy, qit’a, fard kabi mumtoz she’riyatning kichik janrlaridan ham unumli foydalangan. Ular orasida badihago‘ylik asosida yaratilgan she’rlar anchaginani tashkil qiladi.

Biz mazkur maqolada “Boburnoma” asaridan o‘rin olgan muallifning badihago‘ylik asosida yozilgan she’rlari badiiyati haqida so‘z yuritmoqchimiz.

## NATIJALAR

Adabiyotshunoslikka oid mumtoz manbalarda biror shoir haqida so‘z borganida, badiha, badihago‘ylik atamasiga bot-bot murojaat qilinganiga guvoh bo‘lamiz. Shu o‘rinda, mazkur atamaning adabiyotshunoslik lug‘atlarida berilgan sharhiga to‘xtalsak. Bu atama lug‘atlarda improvizatsiya, badiha, ekspromt so‘zlar bilan keltiriladi. Ushbu atamalar umumiy ma’noda bitta narsani anglatsa-da, ularning har birining o‘zigagina xos bo‘lgan ma’no nozikliklari bor. Ular orasidan improvizatsiya (lotincha “improvisus” – kutilmagan, birdan) nisbatan keng tushuncha bo‘lib, nafaqat badiiy adabiyotga, balki san’atning ko‘proq ijro bilan bog‘liq turlari – musiqa, raqs, teatr san’atida, shuningdek, she’riyatda kuzatiladi. Improvizatsiya, asosan, folklorning terma, aytishuv, ba’zan doston kabi janrlariga xos xususiyat bo‘lib, keyinchalik yozma adabiyotga, xususan, she’riyatga ko‘chgan. O‘tmishda muntazam o‘tkazib turilgan nafis majlislardagi she’rxonlikning ijro bilan bog‘liqligi bunga asos bo‘lgan. [2, 117]

Badiha (arabcha، بَدِيهٌ – o‘ylovsiz, birdaniga aytilgan chiroyli so‘z, topqirlik) avvaldan maxsus tayyorlanmasdan, daf’atan aytilgan she’r bo‘lib, u, asosan, biror voqeadan qattiq ta’sirlanish, mushoiralarda o‘zga shoir aytgan she’rga javoban yoki qaltis vaziyatdan hozirjavoblik bilan chiqish zarurati tufayli yaratiladi. Mutaxassislarining ta’kidlashlaricha, badiha she’r shoirdan yuksak darajadagi obrazli tafakkurni, she’r texnikasini mukammal egallash, badiiy san’atlardan o‘rinli va mohirona foydalana olish, konkret narsa-hodisa, voqeа yoki holatni zudlik bilan va

zakiyona baholab, ulardan badiiy umumlashma chiqara bilish kabi malakalarni talab etadi. Manbalarda janr xususiyatlari jihatidan qulay bo‘lgani uchun badihaning ko‘proq ruboiy yoki qit’a ko‘rinishida bitilishi aytildi. [2, 60]

Ekspromt (lotincha, “expromtus” – tayyor) esa ijodiy improvizatsiyaning bir ko‘rinishi sifatida, ya’ni biron narsa-hodisa haqida hech bir tayyorgarliksiz, shu paytning o‘zidayoq aytilgan yoki yozilgan she’r ma’nosida sharhlanadi. [2, 365]

Biz ushbu mo‘jaz maqolamizda yuqorida sharhlangan uch so‘zdan “badiha” atamasini qo‘llashni ma’qul topdik.

## MUHOKAMA

Zahiriddin Muhammad Bobur “To‘qqiz yuz o‘ttiz ikkinchi (1525) yil voqealari” badihago‘ylikning betakror namunasini bayon etgan: Boburning amaldorlaridan Xoja Kalon Hindistondan, uning ob-havosidan nafratlanar edi. Bobur unga G‘azna va Gardiz viloyatlarini boshqarishni topshirib, Xurosonga qaytishiga ruxsat beradi. Xoja Kalon ketishida o‘zi yashagan uyining shiftiga quyidagi baytni yozib ketadi:

*Агар баҳайру саломат гузар зи Синດ кунам,  
Суёҳ рўй шавам, гар ҳавоий Ҳинດ кунам.*

(*Agar sog‘-salomat Sinddan o ‘tib ketolsam, yuzi qora bo ‘lay, yana Hindni havas qilsam.*)

Albatta, Bobur Xoja Kalonning bu qilig‘idan ranjiydi va badihago‘ylik bilan quyidagi ruboyni aytib, qog‘ozga tushirib, uning ortidan yuboradi:

*Yuz shukur de, Boburki, Karim-u G‘affor  
Berdi senga Sind-u Hind-u – mulki bisyor.  
Issiqlig‘ig‘a gar sanga yo‘qtur toqat,  
Sovuq yuzini ko‘ray desang G‘azni bor.* [1, 211]

Ruboiy badihaning go‘zal namunalari qatoridan joy olishga to‘la haqli, deyishimizga bir qator sabablar bor. Jumladan, ruboiy qofiyalanishiga ko‘ra (a-a-b-a), ruboysi xosa sanaladi. Qofiyaning muqayyad qofiya turi qo‘llanilgan. Qofiyadosh so‘zlardagi raviy “r” undoshi, ya’ni sonor bo‘lganligi uchun ulardagi jarangdorlik ta’minlangan. Birinchi misradagi Alloh sifatlarini anglatuvchi “Karim” (karam qilguvchi) va “G‘affor” (kechiruvchi) so‘zlari sifatlashni, uchinchi va to‘rtinchi misralardagi “issiq”, “sovuq” so‘zlari tazod – qarshilantirish san’atini yuzaga keltirgan.

Asarning aynan shu bobida Bobur quyidagi voqeani qayd etadi:

*“Jolada she’r aytur el xili bor edilar. Misli, Shayx Abul Vohid va Shayx Zayn va Mullo Alixon va Turdibek Xoksor, yana ba’zilar ham bor edi. Suhbatga Muhammad Solihning bu bayti mazkur bo ‘ldikim:*

*Чое ки ту боши дигареро чи кунад кас,  
Маҳбубии ҳар ишвагареро чи кунад кас,*

(ya’ni sen bor joyda boshqani ne qilsin kishi, har ishvagar ma’shuqani ne qilsin kishi) *dedukkim, bu go ‘shada aytsunlar. Tab’i nazmi bor el aytmoq maqomida bo ‘ldilar. Chun Mullo Alixon bila xili mutoyaba qililur edi, hazl tariqi bila bu bayt badihada xotirg‘a keldi:*

***Монанди ту маҳдуди ҳареро чи қунад қас,***  
***Ҳар говқуну мөдә ҳареро чи қунад қас.***

(Ya’ni senga o’xhash majolsiz karni ne qilsin kishi, har ho’kizu urg‘ochi xar(eshak)ni ne qilsin kishi.)

Ushbu hajvnamo badiha nozikta’b kitobxonda anchagina qo‘pol ifodasi bilan norozilik kayfiyatini uyg‘otishi tabiiy. Lekin muallifning undan keyin berilgan buning uchun afv so‘rash tarzida bayon qilgan iqrori baytdagi ana shu kamchilikni yuvib yuboradi: *Mundin burun yaxshi va yomon, jid va hazl harne xotirg‘a yetsa edi, mutoyaba tariqi bila gohi manzum bo‘lur edi. Har nechuk qabih va zisht nazm ham bo‘lsa marqum bo‘lur edi. Bu fursattakim, «Mubayin»ni nazm qiladur edim, xotiri fotirg‘a xutur etti va hazin ko‘ngulga mundoq yettikim, hayf bo‘lg‘ay ul tildinkim, mundoq alfozni darj qilg‘ay, yana fikrini qabih so‘zlarga xarj qilg‘ay va darig‘ bo‘lg‘ay ul ko‘nguldinkim, mundoq maoniy zuhur etgay, yana zisht xayollar anda xutur etgay. Andin beri hajv va hazl she’r va nazmidan torik va toib edim. Bu baytni aytur mahal aslo xotirg‘a yetmadi va bu ma’ni hargiz ko‘ngulga xutur etmadi.* [1, 185] Ya’ni, muallif aytaptiki, to bungacha xoh yaxshi, xoh yomon, xoh jiddiy, xoh hazil, nimaiki xotiriga kelsa, mutoyiba usuli bilan ba’zan nazmga tizar edim. Har qancha qabih va xunuk she’r bo‘lsa ham, yozar edim. “Mubayyin”ni nazm qilayotganimda bir mulohaza xotirimga keldi va hazin ko‘nglimga shunday yetdiki, bunday so‘zlarni qayd qilgan va yana fikrini qabih so‘zlarga sarf qilgan tilga hayf bo‘lsin. Bunday ma’nolarni ayon qilgan va xunuk xayollarni unda qayd qilgan ko‘ngilga afsuslar bo‘lsin. O’shandan buyon hajv va hazil she’r yozishni tark qilgan va undan yiroq edim. Lekin bu baytni aytgan chog‘imda bu ma’ni sirayam xotirimga va ko‘nglimga kelmadidi.

Ko‘rinadiki, Bobur ushbu iqrori bilan o‘zidagi kamchilikni ro‘yi-rost, samimiyl holda bayon qilyapti. Unda sa’j usulining (*manzum bo‘lur edi – marqum bo‘lur edi, darj qilg‘ay – xarj qilg‘ay, zuhur etgay – xutur etgay, yetmadi – etmadi.*) mohirona qo‘llangani esa asar tilining, tasvir bayonining shirali va o‘ziga xosligini ta’minlagan.

## XULOSA

Bobur o‘z boshidan kechirgan muayyan bir voqeа-hodisa: chog‘ir majlislari, qir-adirlar bag‘ridagi sayrlar, tog‘larda sarson yurgan kezlarida, shuningdek, uzoqlarda qolgan yaqinlaridan maktub yo biror xabar keltirilganda, o‘rni bilan badihago‘ylikning noyob namunalarini ham keltiradi. “Boburnoma”da muallif tomonidan badiha tarzida

yozilgan she'rlar – ruboiy, qit'a va baytlarning keltirilishi asar badiiyatini yuksaltirishga xizmat qilgan.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. *Boburnoma* / S.Hasanov va boshq. Buyuk qomusiy asar (Nashrga so‘zboshi). – Toshkent, “Sharq” NMAK Bosh tahririysi, 2002.
2. Quronov D. va boshq. *Adabiyotshunoslik lug‘ati*. – Toshkent, “Akademnashr”, 2013.